

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA IJOBIY HISLATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

Maxmudova Mashhura Payzullayevna

Samarqand viloyati Urgut tumani

76-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Yosh avlod tarbiyasi har qanday jamiyatning istiqboli, uning ma'naviy va axloqiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omildir. Ayniqsa, inson shaxsining shakllanishida boshlang'ich ta'lim davri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki bu davrda bolalarning dunyoqarashi, xarakteri, axloqiy qarashlari shakllana boshlaydi.

Kalit so'zlar: Ijobiy fazilatlar, tarbiya, mexanizm, o'quvchi, o'qituvchi, qadriyat, dars, oila, munosabat, halollik, mexribonlik, ruhiy holat, tushkunlik, psixik jarayonlar, muloqot, ong, tafakkur, mulohaza

KIRISH

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktab dasturiga kiritilmagan juda ko'p atrof-muhit hodisalari va ijtimoiy ijobiy munosabatlar haqidagi bilimlar qiziqtiradi. Bu qiziqishlar bolaning ko'pincha e'tiborga olinmaydigan ijobiy o'yinlarga nisbatan qiziqishlarida ham namoyon bo'ladi. Bunday o'yinlarda uning ijtimoiy qiziqishlari, emotsiyalari, jamoa uchun tashvishlanish kabi hislari aks etadi. Qiziquvchanlik kichik maktab yoshidagi bolalarning keng aqliy faolligini namoyon etilish shakli hisoblanadi. Vatanga kerakli inson bo'lish uchun o'qishning muhimligi va ahamiyatini bilishi uchun ochiqlik, ishonuvchanlik, ustozining barcha topshiriqlarini bajarishga tayyorlik xususiyatlari keng ijtimoiy burch motivlari, ma'suliyatlilik samarali shartlar hisoblanadi.

Maktab ta'limining dastlabki yillarida qiziqishlar, xususan, bilim egallashga nisbatan qiziqishlar, intellektual qiziqishlar sezilarli darajada rivojlanadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olingan yolg'iz hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil bo'ladi. 3 - 4- sinflarda esa sabablarni, qonuniyatlarni, hodisalar o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqliklarni bilib olish uchun bo'lgan qiziqishlar rivojlanadi. 3- sinfdan boshlab o'qishga qiziqish differensiallasha boshlaydi. O'quvchilardagi bunday qiziqishlar o'zini anglash va o'z xatti-harakatiga baho berishi kabi xususiyatlarni shakllantiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning qiziqishlarida samarali o'qish uchun halaqit beruvchi qator salbiy xarakteristikalar ham mavjud. Bu yoshidagi o'quvchilarning qiziqishlari:

- yetarlicha amaliy natija bera olmaydi;
- qat'iy emas, vaziyatli;

-o'quv materiali va topshiriqlar o'quvchining joniga tez tegadi va charchashni yuzaga keltiradi;

– kam anglanilgan, o'quvchining ma'lum bir predmetdagi nima yoqishini va nima uchun yoqishini aytib bera olmasligida ko'rinadi;

Kichik maktab davrining so'ngiga qadar ijobiy munosabatlar o'rnatishdagi qiyinchiliklarni yengishga nisbatan qiziqish yuzaga kelmaydi. Bularning barchasi kichik maktab yoshida qiziqishlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bo'lib, ba'zan o'qishga nisbatan yuzaki munosabatni keltirib chiqarishi mumkin. Bu davrdagi o'quvchilardagi motivlarning umumiy dinamikasiga nazar tashlansa, quyidagilarni ko'rish mumkin: kichik maktab davrining boshida maktabda bo'lishning tashqi jihatlari, so'ngra birinchi o'quv mehnati natijalariga, keyinchalik, jarayonning o'ziga, o'qishning mazmuniga va shundan so'nggina bilimlarni olish yo'llariga qiziqish kuchli bo'ladi.

O'qishning ijtimoiy ahamiyatini tushunish o'qish mazmunini va bilimlarni egallash yo'llariga qiziqish bilan mustahkamlanishi zarur. Bunday holda kichik maktab davrining oxirlariga borib, o'qishga nisbatan motivatsiyaning pasayishi ko'zga tashlanmaydi. Bilish motivlari quyidagicha o'zgarib boradi: kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qiziqishlari alohida bir faktlarga qiziqishdan, qonuniyat va prinsiplarga qiziqishga aylanib boradi. Oxirgi yillarda o'tkazilgan psixologik tadqiqotlar kichik maktab yoshining o'rtalariga borib bilimlarni o'zlashtirish yo'llariga qiziqish yuzaga kelishi mumkinligini ko'rsatib berdi. Kichik maktab davrida mustaqil ta'lim motivlari ham yuzaga kelib, lekin ular eng oddiy shaklda - bilimlarni olish qo'shimcha manbalariga va qo'shimcha kitoblarni vaqti-vaqti bilan o'qishga qiziqish bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelganida differensial bo'lmagan umumiy tushunishdan o'qish va o'rganishning zarurligi sabablarini chuqur anglashga, "o'zi uchun" o'qish mazmunini anglab etishga tomon o'zgarib, ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo'ladi. Yosh avlod tarbiyasi har qanday jamiyatning istiqboli, uning ma'naviy va axloqiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omildir. Ayniqsa, inson shaxsining shakllanishida boshlang'ich ta'lim davri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki bu davrda bolalarning dunyoqarashi, xarakteri, axloqiy qarashlari shakllana boshlaydi. Shu sababli boshlang'ich sinf davrida berilgan tarbiya nafaqat o'quvchining hozirgi xulq-atvori, balki kelajakdagi yetuk shaxs sifatidagi kamolotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki barkamol, ijtimoiy jihatdan faol, mustaqil fikrlovchi va axloqiy fazilatlarga ega shaxsni voyaga yetkazishni maqsad qilgan. Bunday shaxsni tarbiyalash esa eng avvalo ijobiy fazilatlarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Mehr-oqibat, odob, halollik, sabrtoqat, mas'uliyat, o'zaro hurmat, vatanparvarlik, mas'uliyatlilik, do'stlik kabi ijobiy fazilatlar insonning jamiyatda to'laqonli yashashi va muvaffaqiyatga erishishida muhim rol o'ynaydi.

Bu ijobiy fazilatlar orqali bola nafaqat yaxshi inson, balki ijobiy fazilatlarga ega fuqaro sifatida shakllana oladi. Bunday yondashuv Yangi O'zbekiston taraqqiyot konsepsiyasida ilgari surilgan "inson qadri uchun" tamoyilining amaliy ifodasidir.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi – bu nafaqat o'quvchilarga dastlabki bilim va ko'nikmalar beriladigan davr, balki ularning shaxsiyati, axloqiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari va dunyoqarashi shakllanadigan eng muhim bosqichdir. Ushbu davrda ijobiy fazilatlarni shakllantirish orqali insonning kelajakdagi ma'naviyaxloqiy qiyofasi asos solinadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning shaxsiy sifatlari, ijtimoiy ko'nikmalari va axloqiy qarashlarini shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bu bosqichda o'qituvchi va ota-onaning hamkorligi, tarbiyaviy muhit, didaktik materiallar va metodlarning to'g'ri tanlanishi orqali o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.



Boshlang'ich sinf lider o'quvchilarining ijobiy fazilatlarini shakllantirish uchun, o'qituvchi avvalo, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv prinsipini bilishi, dars mobaynida darsga asoslangan ta'lim nazariyasi bo'lishi, etika, estetika, madaniyat va axloqiy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik bir-biriga bog'liqligi, tarbiyaviy jarayonni tizimli yondashuv asosida tashkil qilishi va mana shu mexanizmlarni bilishi lozim.

Mutaxassislarning aniqlashicha, boshlang'ich sinf lider o'quvchilarida ijobiy fazilatlarni shakllantirish o'qituvchining pedagogik mahorati, tarbiyaviy metodlar, oila bilan hamkorlik va ta'lim muhitiga bevosita bog'liq. Lider o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni singdirishda o'qituvchining shaxsiy namunasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'quvchilar ko'pincha o'qituvchining xulq-atvorini o'zlashtiradi. O'qituvchi qanday saviyada va ko'rinishda bo'lsa boshlang'ich sinf o'quvchilari ham xuddi shu ko'rinishda bo'ladi. Agar boshlang'ich sinflarda faoliyatga asoslangan metodlar (rolli o'yinlar, tarbiyaviy suhbatlar, muammoli vaziyatlar) qo'llanilsa, hayotiy vaziyatlardan foydalanish orqali axloqiy tushunchalar yanada samarali o'zlashtiriladi. Ota-onalar

bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar ijobiy fazilatlarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi, ammo ko'pchilik hollarda bu hamkorlik yetarli darajada emas. Ijtimoiy loyihalar, kichik guruhli faoliyatlar va jamoaviy tadbirlar orqali bolalarda ijtimoiy mas'uliyat va hamjihatlik hissi shakllanadi. O'qituvchi tomonidan muntazam tarzda berilgan ijobiy rag'bat (maqtov, rag'batlantirish, ishonch) bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ijobiy xatti-harakatlarni kuchaytiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekiston – eng avvalo, yangi fikrlaydigan, tashabbuskor, bilimli va vataniga sadoqatli yoshlar davlati bo'lishi kerak." Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, yoshlarda aynan ijobiy fazilatlarini shakllantirish – zamon talabi bo'lib, bu masala ta'lim-tarbiyaning markaziy muammolaridan biriga aylanmoqda. Yangi O'zbekiston g'oyalari inson manfaatlarini ustuvor qo'yish, har bir fuqaroning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishi uchun teng imkoniyatlar yaratish, avlodlar orasida uzviylikni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu g'oyalarni ro'yobga chiqarish esa eng avvalo maktabdan, xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlanishi lozim. Chunki aynan shu bosqichda insonning shaxsiyati, qarashlari va ijtimoiy yo'nalishi shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf lider o'quvchilariga ijobiy sifatlarni singdirish, asosan, maktab va oila muhitining o'zaro uyg'unligi orqali amalga oshadi. Umuman olganda, boshlang'ich ta'lim bosqichida olib boriladigan maqsadli, tizimli va izchil tarbiyaviy ishlar nafaqat shaxsning, balki jamiyatning kelajakdagi ijtimoiy-madaniy qiyofasini belgilashga xizmat qiladi. Shu bois ushbu yo'nalishdagi ilmiy-amaliy tadqiqotlar, metodik ishlanmalar va o'quv dasturlarining doimiy takomillashtirilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu – ma'naviy barkamol, axloqiy yetuk, vatanparvar va tashabbuskor avlodni voyaga yetkazishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston – ma'naviy yuksalish sari" nutqi. – Toshkent, 2021.
2. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi". – Toshkent, 2022.
3. Nishonova Z. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
4. Yo'ldosheva N. Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy jarayon. – Samarqand: Zarafshon, 2020.
5. Montessori M. Bola va uning tarbiyasi. – Toshkent: Ma'rifat, 2010.